

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi  
xuzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertizasi markazi,  
YTE laboratoriysi mudiri, 3-darajali  
adliya maslaxatchisi Rustemov Yakubjan  
Kiyamovich.**

## **GAZ BALLONLAR VA GAZDAN XAVFSIZ FOYDALANISH QOIDALARI HAMDA TURLI ISITISH VOSITALARIDAN XAVFSIZ FOYDALANISH SHARTLARI.**

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Yong‘in texnik ekspertizasi laboratoriysi amaliyoti, turmushda gaz manbasida ishlaydigan uskuna va moslamalar hamda ularning uzatish tizimlarida vujudga kelayotgan nosozliklar oqibatida gazning sizib chiqishi va uning havo bilan aralashmasining yonishi, chaqnashi va portlashi kabi favqulodda xodisalariga sabab bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida esa, fuqarolarning tan jarohati olishiga, ba’zi xollarda o‘lim bilan yakunlanishiga hamda katta moddiy zararlar keltirishi kabi ko‘ngilsiz xolatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda, mamlakatimizda gaz va elektr energiya manbalaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Respublikamizning barcha viloyat, shaxar, tumanlaridan tortib, chekka tuman va qishloqlarigacha gazning yetkazib berilayotganligi sir emas. Shu bois, barcha ishlab chiqarish korxonalari, o‘quv muassasalari, zavod, fabrika, ferma, barcha tadbirkorlik sub’ektlari yoki xonadonimizni gaz va elektr energiya manbalarisiz tasavvur qila olmaymiz.

Ammo, ohirgi yillarda ko‘p kuzatilayotgan mudhish hodisalardan – xonadonlarda, ishlab chiqarish ob’ektlarida gaz-havo aralashmasining hajmi portlashi, chaqnashi hamda avtomobilarga o‘rnatilgan gaz balloonlarining portlashi xodisasining sodir bo‘layotganligi sir emas. Buning oqibatida ko‘plab fuqarolarning hayoti xavf ostida qolmoqda, ularni ko‘plari jarohat olishi va vafot etishi bilan yakunlanmoqda.

Ekspertiza amaliyoti, ya’ni Yong‘in texnik ekspertizasi laboratoriyasiga gaz bilan bog‘liq favqulodda xodisalar yuzasidan kelib tushayotgan materiallar o‘rganilganda, bunday favqulodda xodisalarning asosiy sababi gaz moslamalaridan noto‘g‘ri foydalanish, gaz uskunalarining nosozligi, gaz xavfsizligi qoidalari, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariiga rioya qilmaslik oqibatida sodir bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

**Portlash** - bu qisqa vaqt ichida kichik hajmda sezilarli darajada energiya chiqishi bilan sodir bo‘ladigan va yuqori tezlik tufayli atrof-muhitga zarba, tebranish va issiqlik ta’siriga olib keladigan tez oqimli fizika-kimyoviy jarayon xisoblanadi.

**Chaqnash** - qisqa muddatli ko‘rinadigan yorug‘lik (nur) sochish bilan kuzatiladigan yonuvchan gaz, bug‘ va havo arlashmasi moddasining yuzasidagi tez yonishidir.

**Yong‘in** - odamlarni hayoti va (yoki) sog‘ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish xodisasidir.

**Yonish** – katta miqdorda issiqlik va yorug‘lik ajralib chiqishi bilan kechadigan yonuvchi modda va oksidlovchining o‘zaro murakkab fizik – kimyoviy ta’siriga aytiladi.

Ma’lumki, tabiiy gaz xidsiz, rangsiz, tez alanganuvchan, xavo bilan aralashuvchan, yopik muxitda xavo bilan aralashib, yong‘in manbayi ta’sirida portlovchi, yonuvchi xususiyatiga ega modda xisoblanadi.

Gazni sezish uchun unga quyiladigan asosiy talablardan biri uni xidlantirilish xisoblanadi. Xidlantirish uchun gazga o‘tkir xidli modda odarant, ya’ni etilmerkaptan qushiladi.  $1000\text{ m}^3$  tabiiy gazga yozda 16 gramm, qishda 19 gramm etilmerkaptan moddasi qushiladi. Tabiiy gazi (metan gazi  $\text{SN}_4$ ) yopiq muxitda 5% dan 15% gacha yig‘ilib qolsa tashqi yong‘in manbai ta’sirida portlash xususiyatiga ega.  $1\text{ m}^3$  metan gazni to‘liqyonishi uchun  $10\text{ m}^3$  xavo yoki  $2\text{ m}^3$  kislorod kerak bo‘ladi. Xavo tarkibida 21% ga yaqin kislorod mavjud.

Tabiiy gaz tarkibi quyidagi gazlardan tashkil topgan:

Metan ( $\text{SH}_4$ ) – 97,8 %;

Etan ( $\text{S}_2\text{N}_6$ ) - 1,6%;

Propan ( $\text{S}_3\text{N}_8$ ) – 0,3%.

Ularda og‘ir uglevodorodlar - 0,08%, uglekislota  $\text{SO}_2$  – 0,12 %ni tashkil qiladi. Tabiiy gazning normal xolatdagি solishtirma og‘irligi - 0,76  $\text{kgn/m}^3$ ga teng.

Tabiiy gaz xavodan yengil bo‘lganligi uchun doim yuqoriga intiladi, uning uchun gaz sizib chiqqanda xonaning yuqori qismida yig‘iladi va manba bilan ta’sirlashishi natijasida bir zumda chaqnashi, portlashi va yong‘inni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Gaz-havo aralashmasining portlashi - mazkur aralashmani yopiq hajm ichida juda katta tezlikda yonishidir. Portlash yuzaga kelishi uchun butun xonani gaz-havo aralashmasi bilan to‘lishi shart emas. Xonaning ma’lum bir qismida 5-15% miqdorda portlashga xavfli bo‘lgan gaz-havo aralashmasining to‘planib qolishi portlash uchun yetarli hisoblanadi. Xonada hosil bo‘lgan gaz-havo aralashmasida gaz ma’lum miqdorni tashkil etganida aralashmaning yonishi tezligi sekundiga bir necha yuz metrga teng bo‘lgan portlashsimon yonishga o‘tadi, natijada portlash sodir bo‘ladi. Portlash natijasida kuchli siqilgan havo hisobiga zarb to‘lqini hosil bo‘ladi va bu binoning buzilishiga olib keladi. Binoning kuchli shikastlanishini sababi, binoning ichki qismida turli to‘siqlar mavjud bo‘lganligini inobatga olib, yuz bergen gaz-havo aralashmasining xajmli chaqnashi oqibatida hosil bo‘lgan ortiqcha bosimning oqimi mavjud bo‘lgan to‘siqlarga urilib, oqimning turbulizatsiyasi hosil bo‘lib, to‘lqin kuchi 15 barobarigacha kuchayib, zarba hosil qilishi mumkin.

## **Tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan gaz moslama va uskunalar**

Gaz moslamalari va uskunalarini ya'ni gaz tizimidagi ma'lum bir jarayonga ma'sul qurilma, moslama, ularning fragmentlari, bo'laklari yong'in yoki portlash texnik ekspertizalarining ob'ektlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan:

Gaz plitasi – maishiy uyda foydaliladigan 1, 2, 3, 4-komforkali gaz plitalari	 foto 1.
Suv isitish qozonlari – Gaz yondirgich bilan isitilishiga mo'ljallangan (AGV, OAGV kabi) qozonlar	 Foto 2.
Gaz quyish idishlari- sisternalar	 Foto 3.

Isitish pechlari – gazga va qattiq yoqilg‘iga mo‘ljallangan pechlar, kaminlar



Foto 4.

Gaz yondirgichlari – gaz uzatish va yondirish moslamalari (gorelka)



Foto 5.

Gaz quvurlari – gaz uzatish moslamalari metall va plasmassa trubalar, rezina shlangalar.



Foto 6.

Gaz reduktori- gaz taqsimlagich moslamalari.

Gaz quyish kalonkalari;

Gaz quyish shtuserlari va xakozo.



Foto 7.

Gaz jo'mraklari – ochish yopish kranlari.



Foto 8.

Gaz ballonlar – gaz to'ldirish uchun yopiq germetik idishlar



foto 9.



foto 10.

Gaz bilan bog'liq portlashlarni sababi yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish jarayonida, portlash sodir bo'lish mexanizmining qonuniyatlarini va hodisa sodir bo'lgan joyning jismoniy muhitini tashkil etuvchi ob'ektlarga uning ta'siri izlarini o'rghanish, shuningdek uning tuzilishi, usulini aniqlashdan iborat va portlash manbasining xavflilik darajasini o'rghanish asosiy vazifalarni tashkil etadi. Shuningdek, portlash sodir bo'lgan joyda voqeа joyining ilk holatini tiklash, buzilganlik va dastlabki holatini o'rghanish, portlashni keltirilib chiqargan vaziyatni tahlil qilish, portlash qoldiqlari yordamida portlashga sabab bo'luvchi omillarni, portlagan moslamani aniqlash va buning bilan xodisaning kelib chiqish mexanizmini tiklashdan iborat.





**Gaz havo aralashmasining yonishi va portlashi bilan kuzatilayotgan favqulodda xodisalarining asosiy sabablari:**

- Uy-joy, xonadon yoki binoga o‘zboshimchalik bilan gaz olib kirish;
- Uy-joy, xonadon yoki bino gaz loyixasiga o‘zgartirish kiritish;

- O‘zboshimcha gaz uskunalarini o‘rnatish va ta’mirlash;
- Qo‘lbola gaz uskunalari, rezina shlanglardan foydalanish;
- Gaz uskunalarining konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritish;
- Shamollatish va tutun so‘rish tizimlarining tuzilishini o‘zgartirish;
- Shamollatish kanallarini, tutun haydash tuynuklarini yopib qo‘yish;
- Gaz ballonlari, gaz tarqatish va ochib yopish moslamalari, uzatish quvurlari, ulangan qismlari nosoz bo‘lgan (gaz sizib chiqayotgan) hollarda gazdan foydalanish;
- Nosoz gaz uskunalaridan foydalanish;
- Dudburonlari nosoz gaz moslamalaridan foydalanish;
- Avtomatlashtirilmagan gaz uskunalarini nazoratsiz qoldirish.
- Gaz plitalaridan xonani isitish maqsadida foydalanish;
- Gaz uskunalaridan boshqa maqsadlarda foydalanish.
- Gazzdan foydalanish qoidalariaga rioya etmaslik xolatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarorining 2-ilovasida, “Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari” belgilab berigan:

Gaz ta’minoti tashkiloti quyidagilarga majbur:

- o‘ziga qarashli bo‘lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o‘z hisobidan ta’mirlash-tiklash, o‘z gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko‘zdan kechirish, tabiiy gaz yetkazib berish qisqargan yoki to‘xtagan taqdirda bu to‘g‘rida iste’molchilarni xabardor qilishlari zarurdir.

Maishiy iste’molchilar majburiyatları:

- yangi turar joylarga ko‘chib o‘tilganda hamda mavjud uy-joy fondini gazlashtirish davomida gaz xo‘jaligidan xavfsiz foydalanish qoidalari bo‘yicha ko‘rsatmalar olish, o‘z tasarrufidagi gaz tarmoqlari, priborlar, uskunalar, shuningdek, foydalanilayotgan yerto‘lalar, texnik yo‘laklar va boshqalarni soz holatda saqlash, elektr yoritish va ventilyatsiya tizimining doimiy ishlashini ta’minlash, binolar yerto‘lalaridagi yer osti kommunikatsiyalarining zichligini, shuningdek, binolar qurilish elementlarining gaz tarmoqlari bilan o‘zaro kesishgan joylarini kuzatib borish, favqulodda va avariya holatlarida, kunning istalgan vaqtida o‘z xizmat guvohnomalarini ko‘rsatgan gaz ta’minoti tashkiloti ishchilariga qarshilik ko‘rsatmasdan ularning gaz sizib chiqish holatini tekshirish uchun barcha yerto‘lalar, texnik yo‘laklar, xonalarga kirishini ta’minlash, belgilangan tartibda tutun mo‘rilari, mo‘rilarning kallaklarini va ventilyatsiya kanallarining holatini o‘z vaqtida tekshirilishini tashkil qilish, tutun mo‘rilari va ventilyatsiya kanallaridagi nosozliklar to‘g‘risida yong‘in xavfsizligi xizmatlariga nosozliklarni tuzatish uchun zudlik bilan xabar berish, tabiiy gazdan oqilona foydalanish, gaz uskunalarini toza saqlash, taom tayyorlash jarayonida gaz yondirgichlarni ifloslanishdan saqlash, yerto‘la, yo‘lak, hovli, ko‘chada tabiiy gaz hidi sezilgan taqdirda, avariya xizmatiga «104» telefoni orqali xabar berish, gaz bilan to‘lgan joylardan odamlarni olib chiqish, elektr yoritish tizimi yonib va o‘chib qolishi, ochiq olov yoki uchqun paydo bo‘lishini oldini olish yuzasidan choralar ko‘rish.

Tabiiy gazdan foydalanishda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

➤ o'zboshimchalik bilan gazlashtirish, gazdan foydalanish uskunasini mustaqil ravishda ko'chirish, almashtirish va ta'mirlash, gazdan foydalanish uskunasi joylashgan xonalarda me'yoriy talablarga nomuvofiq tarzda qayta rejalashtirish, gazdan foydalanish uskunasi, mo'ri va ventilyatsiya tizimlari tuzilishiga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritish, shuningdek, mo'rilarni tozalash uchun mo'ljallangan ventilyatsiya kanallari va lyuklarni yopib qo'yish, xavfsizlik va tartibga solish avtomatika tizimini o'zboshimchalik bilan o'chirish, gaz priborlari, avtomatika va armatura yaroqsiz holga kelgan taqdirda gazdan foydalanish, gazlashtirilgan pechlar va mo'rilda sinch zichligi, suvoqdagi (yoriqlar) buzilishi holatlarida tabiiy gazdan foydalanish, tabiiy gazdan mo'ri va ventilyatsiya kanallari tekshirilganligi va tozalanganligi haqidagi dalolatnoma mavjud bo'limganda yoki uning muddati o'tganidan so'ng foydalanish, mo'ri va ventilyatsiya kanallarini o'zboshimchachilik bilan tozalash, darchalar (framugalar), jalyuzi panjaralari, ventilyatsiya kanallari panjaralari, hammom va oshxona eshiklari ostidagi tirkishlarning yopiq holatlarida, mo'ri va ventilyatsiya kanallarida tortish kuchi yo'q bo'lganda gaz priborlaridan foydalanish, ishlab turgan gaz priborlarini qarovsiz qoldirish, uzluksiz ishlab turishni nazarda tutadigan va buning uchun tegishli avtomatlashtirilgan tizimga ega gaz priborlari bundan mustasno, gazdan foydalanish uskunalaridan maktabgacha yoshdagি bolalar, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan va ushbu uskunalardan foydalanish qoidalardan bexabar shaxslar foydalanishga ruxsat etish, gaz quvurlariga arqon bog'lash va gaz quvurlariga og'ir vaznli buyum qo'yish, tabiiy gaz va gazdan foydalanish uskunalaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, gaz plitalarini xonalarni isitish uchun foydalanish, gazdan foydalanish uskunasi o'rnatilgan xonalardan uxlash va dam olish uchun foydalanish, tabiiy gaz sizib chiqish joylarini aniqlash uchun ochiq olovdan foydalanish va shu kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 martdagи yanvardagi 226-sон qarorining ilovasida, "Gaz xo'jaligida xavfsizlik qoidalari" belgilab berigan,unga muvofiq:

➤ Gaz balloonli qurilmalarning germetikligini gazning ishchi bosimi ostida aniqlovchi asbob bilan yokisovun ko'pigidan foydalanib tekshirishga ruxsat etiladi. Barcha maishiy gaz balloonlari besh yilda bir marta texnik tekshiruvdan o'tkaziladi, gaz bilan to'ldirilgan balloonlar loyiha bo'yicha maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi, suyultirilgan uglevodorodli gaz (SUG) bilan to'ldirilgan balloonlar saqlanadigan omborlarning pollari tekis, sirpanmaydigan va turli jismlar zarbidan uchqun chiqarmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Omborxonada to'ldirilgan va bo'sh balloonlar alohida saqlanishi kerak. Ularning o'rni "To'ldirilgan balloonlar" va "Bo'sh balloonlar" degan yozuvlar bilan belgilab qo'yiladi, SUG bilan to'ldirilgan balloonlarni yengil alanganuvchi moddalar va yonish jarayonini kuchaytiradigan texnik gazlar (kislород) bilan birgalikda saqlashga ruxsat berilmaydi, SUG bilan to'ldirilgan balloonlar saqlanadigan omborlar (yoki ochiq maydonlar) atrofidagi 20 metr masofa hududida turli yonuvchan materiallarni saqlash hamda ochiq olov bilan bog'liq bo'lgan temirchilik, payvandlash, kavsharlash va shu kabi boshqa ishlarni bajarish taqiqlanadi, gaz balloonli qurilmalarning gaz balloonlari gaz ta'minoti tashkiloti

ishchilarini tomonidan o'rnataladi va almashtiriladi, loyiha hujjatlarisiz o'rnatalgan va texnik ko'rikdan o'tmagan maishiy gaz ballonlaridan foydalanish qat'ian taqiqlanadi.

➤ Shuningdek, o'rnatalgan qoidalariaga asosan, gaz ballonini o'rnatalish uchun loyiha ishlab chiqiladi va joylardagi gaz idoralari bilan kelishiladi. Shundan so'ng ishlatishga ruxsat beriladi. Agar loyiha bo'lmasa, gaz ballonidan foydalanish taqiqlanadi, bitta xonadonda 2 tadan ortiq gaz balloni saqlash va ishlatish mumkin emas, gaz plitasi eshik, deraza va elektr rozetkadan 0,5 metr masofada o'rnatalishi lozim, gaz plitasi o'rnatalgan xonada faqat bir dona gaz ballonidan foydalanish va saqlashga ruxsat etiladi, bunda xona ichidagi harorat +45 darajadan oshmasligi, gaz balloni gaz plitasidan kamida 1 metr, isitish radiatorlari yoki pechkalardan kamida 2 metr uzoqlikda va maxsus temir shkaflarda o'rnatalishi lozim, olov yordamida gaz sizish joylarini aniqlash mumkin emas, uy sharoitida gaz ballonlarini ta'mirlash, payvandlash va boshqa turdag'i texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish qat'ian man etiladi. Gaz ballonlaridan faqatgina belgilangan maqsadlarda foydalanish, ularga talabga javob bermaydigan ulash moslamalarini o'rnatalish, rezina shlanglardan foydalanish taqiqlanadi.

### **Isitish vositalaridan xavfsiz foydalanish shartlari**

Ma'lumki, kuz-qish oylari, ya'ni isitish mavsumida isitish vositalaridan noto'g'ri foydalanish, qo'l bola isitish pechlaridan foydalanish oqibatida ko'plab, yong'in, chaqnash va portlash kabi favqulodda xodisalarning kelib chiqishi sir emas. Shunday ekan, o'zimizni va atrofimizdagilarni xavfsizligi uchun isitish vositalaridan foydalanishda o'rnatalgan tartib va qoidalarga qat'iy amal qilishimiz zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabrdagi 649-son qarori ilovasida "Yong'in xavfsizligi qoidalari"da, isitishda yong'in xavfsizligi talablari belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra:

➤ Binolarda (inshootlarda) faqat sanoatda (zavodda) ishlab chiqarilgan issiqlik hosil qiluvchi qurilmalardan (shu jumladan, issiqlik to'plamaydigan pechlardan) va isitish moslamalaridan (turli buyumlardan yasalgan pechlar bundan mustasno) foydalanishga ruxsat etiladi.

➤ Isitish mavsumi boshlanishidan oldin pechlar, qozonlar, issiqlik hosil qiluvchi uskunalar hamda boshqa isitish anjomlari va tizimlari tekshirilgan va ta'mirlangan bo'lishi kerak. Nosoz isitish pechlari, qozonxona jihozlari, issiqlik hosil qiluvchi qurilmalar va boshqa isitish anjomlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Qozonxona va boshqa issiqlik chiqaruvchi qurilmalardan foydalanishda quyidagilar taqiqlanadi:

➤ qozonxonalarda va issiqlik chiqaruvchi qurilmalar o'rnatalgan xonalarda suyuq yoqilg'i mahsulotlarini saqlash;

➤ isitish uskunalaridan foydalanish uchun texnik shartlarda ko'rsatilmagan neft mahsulotlari chiqindilaridan va boshqa yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklardan yoqilg'i sifatida foydalanish;

➤ yoqilg'i uzatish tizimidan suyuq yoqilg'i tomganda (gaz sizib chiqqanda) issiqlik o'tkazuvchi qurilmalardan foydalanish;

➤ qo'l bola yasalgan gaz gorelkalaridan foydalanish;

- o'chib qolgan forsunka yoki gaz gorelkalariga yoqilg'ini uzatish;
- uskunalarning yonish kameralarini shamollatmasdan yoqish, shuningdek, mash'ala yordamida va boshqa shunga o'xhash asboblardan foydalanmasdan yoqish;
- yoqilg'i ta'minotini nazorat qilish va boshqarish asboblari bilan jihozlanmaganda, ular nosoz yoki o'chirilgan holatda bo'lganda ishlatish;
- kiyimlarni yoki boshqa yonuvchi materiallarni qozonlar ustida va mo'rilarda saqlash. Issiqlik nurlanishining yo'nalishi bo'yicha yonuvchan materiallarga gacha bo'lgan masofa kamida 1,25 m bo'lishi kerak;
- shamollatish kanallari va boshqa kanallardan dudburon sifatida foydalanish. Pech yordamida isitishga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari:o
- Odamlar ommaviy bo'ladigan ob'ektlarda, shuningdek, sutka davomida bolalar bo'ladigan muassasalarning yotoqxonalarida isitish pechlarini o'rnatish taqiqlanadi.
- Suyuq va qattiq yoqilg'ida ishlaydigan dudburon va pechlarni, isitish mavsumi boshlanishidan oldin hamda isitish mavsumi davomida qurumdan tozalash lozim, ushbu ishlar kamida:
  - a) isitish pechlar uch oyda bir marta;
  - b) doimiy (uzluksiz) ishlatiladigan pech va o'choqlar ikki oyda bir marta;
  - v) oshxona plitalari va boshqa uzluksiz (uzoq muddat) yoqiladigan pechlar oyiga bir marta o'tkaziladi.
- Isitish pechlaridan foydalanishda quyidagilar taqiqlanadi:
  - yoqilgan pechlarni nazoratsiz qoldirish hamda ularni nazorat qilishni yosh bolalarga topshirish;
  - pechlar atrofida va ularning eshiklari (tuynuklari) oldidagi tunuka qoplamasida yoqilg'i va boshqa yonuvchi moddalar va materiallarni joylashtirish;
  - pech va tandirlarni yoqish uchun yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklardan (benzin, kerosin, dizel yonilg'isi va boshqalar) foydalanish;
  - ushbu turdag'i yoqilg'ilarga mo'ljallanmagan pechlarni ko'mir, koks va gaz yoqilg'ilar bilan yoqish;
  - xonalarda majlis yoki boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazilishi davrida pechlarni yoqish;
  - ventilyatsiya (shamollatish) va gaz kanallaridan dudburon sifatida foydalanish;
  - pechlarni haddan ziyod qizdirib yuborish;
  - pechlar va boshqa isitish moslamalarini yonuvchan konstruksiyalardan yong'inga qarshi bo'linmasiz (ajratmasiz), yonmaydigan materialdan tayyorlangan o'lchami 0,5-0,7 m dan kam bo'limgan o'choqning oldiga qo'yiladigan panellarsiz (yog'ochdan tayyorlangan va boshqa yonuvchan materiallardan tayyorlagan pollarda), shuningdek, bo'linma (ajratma) va o'choq oldi panellarida kuyishlar va shikastlanishlar (yoriqlar) bo'lganda ishlatish;
  - pechlarni yoqish uchun uzunligi o'choq kattaligidan kattaroq o'tindan foydalanish;
  - pechlarni eshigi ochilgan holda yoqish.

➤ Binolarda va inshootlarda (yashash uylaridan tashqari) pechlarni yoqish, ish vaqtin tugashidan ikki soat oldin, shifoxona va boshqa odamlar kunu tun bo‘ladigan ob’ektlarda esa uyquga ketishdan ikki soat oldin to‘xtatilishi lozim;

➤ Bolalar kunduz kuni bo‘ladigan xonalardagi pechlarni yoqish ishlari kamida bolalar kelishidan bir soat oldin tugatilishi lozim. Yoqilg‘i sifatida gazdan foydalanimadigan ob’ektlarda pechlarni yoqish har to‘rt soatda bir marotaba bir soatdan kam bo‘lmagan tanaffus bilan amalga oshirilishi lozim.

➤ O‘txonadan sidirib olinadigan kul va kulga aylanmagan qoldiqlar (shlaklar) ustiga suv quyib, ularni maxsus ajratilgan xavfsiz joylarga olib chiqib tashlash kerak.

➤ Standartlar va texnik shartlarning yong‘in xavfsizligi talablariga javob bermaydigan metall pechlarni o‘rnatish mumkin emas;

➤ Pechlardan moddiy boyliklargacha, savdo rastalari, peshtaxta, shkaflar va boshqa anjomlargacha bo‘lgan masofa 0,7 m dan, o‘txona og‘zidan esa 1,25 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

➤ Chordoqlardagi barcha dudburonlar va tutun kanallari o‘tgan barcha devorlarning yuzalari yoriqlarsiz, soz holatda va oqlangan bo‘lishi lozim.

➤ Qattiq yoqilg‘ida ishlaydigan qozonxonalarining dudburonlari uchqun so‘ndirgich bilan jihozlanishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan, tabiiy gazdan foydalinishda o‘rnatilgan tartib va qoidalariga amal qilish, Yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, nafaqat o‘zingizni, balki oilangizni, yon atrofdagi fuqarolarimizni sog‘ligini, xayotini, mol-mulkini asrashga va xavfsiz xayot kechirishiga xizmat qiladi.